



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4 (2)



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| RAQAMLI IQTISODIYOTDA “AKT XIZMATLARI” TUSHUNCHASI VA ULARNING EKSPORT SALOHİYATI..... | 14 |
| Shermatov Sherzod Xotamovich RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI | 20 |
| Amonov Mirzohid Tuymuratovich, Xodjajev Anvar Rasulovich TIJORAT BANKLARINING BYUDJET MABLAG’LARI HISOBIGA MOLİYALASHTIRILADIGAN LOYIHALARDAGI ISHTIROKINI KUCHAYTIRISH MEXANIZMLARI | 26 |
| Maxmudov Rahimjon Hamid o’g’li KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO’NALISHLARI..... | 33 |
| Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHDA XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI VA UNI O’ZBEKISTON SHAROITIDA QO’LLASH IMKONIYATLARI | 38 |
| Ne’matova Mavsuma, Xolmamatov Diyorbek ВЛИЯНИЕ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ АКТИВНОСТЬ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ..... | 43 |
| Буранова Лола Вахобовна ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМА КАК ФАКТОР ИНКЛЮЗИВНОГО И УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ И ПЕРСПЕКТИВЫ ТРАНСФОРМАЦИИ | 54 |
| Эшмуротов Дониёр Ихтиёр угли ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARI ASOSIDA XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINING USLUBIY JIHATLARI..... | 60 |
| Ostonaqulova Gulsaraxon Matyoqub qizi, Fayzullayeva Zamira Alijonovna XIZMAT KO’RSATISH KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA SERVIS XAVFSIZLIGI INDEKSI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA | 64 |
| Shodmanova Zubayda Ubaydullayevna QURILISH FAOLIYATI SOHALARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ILG’OR XORIJIY TAJRIBALARI | |
| Xusanov Kamoliddin Xolmamat o’g’li INSON KAPITALI VA KADRLAR SALOHİYATINI BOSHQARISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI | 73 |
| Abdullo Sohobov O’ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA JARAYONLARI JADALLASHUVI VA UNING HUDUDIY XUSUSIYATLARI | 84 |
| Mamanazarov Oybek Shomurodovich KORXONALAR MOLİYAVIY HOLATINI MOLİYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI (MHXS) ASOSIDA BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI | 91 |
| Xamidov Javoxir Shavkat o’g’li BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI..... | 95 |
| Dadajonova Madina Ravshan qizi O’ZBEKISTON VA XORIJIY MAMLAKATLARDA BENEFITSIAR MULKDOR KONSEPSIYASINI QO’LLASHNING DOLZARB MASALALARI | 100 |
| Ochilov Farhod Malikovich O’ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O’TISHNING MAKROIQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH (GDP, BANDLIK VA INVESTITSIYALAR KESIMIDA)..... | 106 |
| Hayitov Jamshid Xolboyevich | |



| | |
|--|-----|
| INVESTITSION JOZIBADORLIKKA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI..... | 111 |
| Mamatqulova Hafiza Bahodir qizi IPOTEKA BOZORI MUAMMOLARINING EMPERIK TAHLILI VA ULARNI BARTARAF ETISH STRATEGIYALARI..... | 118 |
| Olokulova Feruza Mansurovna, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi MILLIY IQTISODIYOT RAQOBATIDA NAZARIY VA AMALIY QARASHLAR..... | 122 |
| Karimova Iroda Abdusattarovna KORPORATIV BANK XIZMATLARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR HAMDA ZAMONAVIY BIZNES MODELLARNI JORIY ETISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI..... | 128 |
| Qurbonov Abror Abdullayevich GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN AND INDONESIA: A COMPARATIVE STUDY..... | 133 |
| Ibrokhimova Iroda Ikromjon Kizi. Askolani. Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA REKRUTING AGENTLIKLARINING O'RNI..... | 142 |
| Sherkulova Nodirabegim Baxordin qizi ФАКТОРЫ ТЕКУЧЕСТИ КАДРОВ И МЕХАНИЗМЫ УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА В СОВРЕМЕННЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ УЗБЕКИСТАНА..... | 148 |
| Джурраева Гузаль Шавкатовна BUDJET DAROMADLARI TARKIBIDAGI SOLIQLARNING ULUSHINI BOSHQARISH..... | 156 |
| Abduraxmonova Gulmira Sobir qizi RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AVTOSERVIS SHOHOVCHALARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH..... | 161 |
| Marqayev Xurshid Aliqulovich THE ECONOMIC NATURE OF HUMAN CAPITAL AND ITS RECOGNITION IN ACCOUNTING AS AN OBJECT OF ECONOMIC ANALYSIS..... | 165 |
| Zafar Qodirov Abdivaxobovich O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH..... | 170 |
| Ibragimov G'ayrat Ablaqulovich. Tursunov Ozod Matlubovich Shukurova Nilufar Qahramonova IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE SERVICES IN THE DIGITAL ECONOMY..... | 175 |
| Mirzaev Kulmamat Djanzakovich NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA INTEGRAL KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH..... | 179 |
| Aliyev Arslon Salom o'g'li A STUDY ON THE COLLABORATIVE MECHANISM OF DIGITAL ARCHIVES GOVERNANCE AND TALENT GOVERNANCE: AN ANALYSIS BASED ON JOB COMPETENCY, PERFORMANCE EVALUATION, AND ORGANIZATIONAL EFFECTIVENESS..... | 184 |
| Wang Biao USTAMA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH..... | 190 |
| Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna | |



USTAMA ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING MAZMUNI VA UNI XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ TAKOMILLASHTIRISH

Tashnazarova Dilfuza Samiddinovna.
**PhD .”Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari”
MTU “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida dotsent v.b.
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti doktoranti,
E-mail: dilfuza11122000@mail.ru.
ORCID: 0009-0003-0575-2818.**

Annotatsiya. Mazkur maqolada ustama ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mazmuni, ularning tarkibi va tasnifi ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash jarayonini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirish yo’nalishlari tahlil qilingan. Xususan, International Financial Reporting Standards tizimi doirasida IAS 2 (Inventories) talablari asosida ishlab chiqarish ustama xarajatlarini mahsulot tannarxiga kiritish mexanizmi ko’rib chiqilgan. Tadqiqot natijasida ustama xarajatlarni rejalashtirish, taqsimlash va nazorat qilishda zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so’zlar: ustama xarajatlarni, ishlab chiqarish tannarxi, IAS 2, xalqaro standartlar, ABC costing, xarajatlarni boshqarish.

Аннотация. В данной статье научно раскрыты экономическая сущность накладных производственных затрат, их структура и классификация. Также проанализированы направления совершенствования учета и распределения накладных затрат на основе международных стандартов финансовой отчетности. В частности, в рамках системы International Financial Reporting Standards рассмотрен механизм включения производственных накладных расходов в себестоимость продукции в соответствии с требованиями IAS 2 (Inventories). В результате исследования обоснована необходимость внедрения современных управленческих подходов к планированию, распределению и контролю накладных затрат.

Ключевые слова: Накладные расходы, себестоимость продукции, IAS 2, международные стандарты, ABC costing, управление затратами.

Abstract. This article examines the economic essence, structure, and classification of manufacturing overhead costs from both theoretical and practical perspectives. It clarifies the distinction between overhead costs and direct costs, as well as the methodological foundations for including overheads in product cost. The study also analyzes directions for improving the accounting and allocation of manufacturing overhead costs in accordance with the requirements of International Financial Reporting Standards. In particular, within the framework of International Financial Reporting Standards, the mechanism for including manufacturing overhead costs in product cost is analyzed based on the requirements of IAS 2 (Inventories). The research substantiates the necessity of implementing modern management approaches, including Activity-Based Costing (ABC), in planning, allocating, and controlling overhead costs.

Keywords: overhead costs, production cost, IAS 2, International Financial Reporting Standards, ABC costing, cost management.

KIRISH.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va korxonalar raqobatbardoshligini ta’minlashda xarajatlarni samarali boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ustama ishlab chiqarish xarajatlari (overhead costs)ni to’g’ri aniqlash, hisobga olish va mahsulot tannarxiga asosli taqsimlash masalalari dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida namoyon bo’lmoqda.

Ustama xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonining ajralmas qismi bo’lib, ular bevosita mahsulot birligiga bog’lanmagan bo’lsa-da, umumiy ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu sababli, ularni



noto'g'ri hisobga olish yoki taqsimlash mahsulot tannarxining buzilishiga, noto'g'ri boshqaruv qarorlariga va moliyaviy natijalarning ishonchligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro amaliyotda ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlash masalalari International Financial Reporting Standards doirasida, xususan IAS 2 Inventories orqali tartibga solinadi. Ushbu standartlarda ustama xarajatlarni normal ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqib taqsimlash, ortiqcha xarajatlarni davr xarajatlari sifatida tan olish kabi muhim qoidalar belgilangan.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – ustama ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy mohiyatini chuqur o'rganish hamda ularni xalqaro standartlarga muvofiq takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan. Xorijiy olimlardan Charles T. Horngren [1] ustama xarajatlarni bilvosita xarajatlar sifatida tavsiflab, ularni mahsulot tannarxiga taqsimlash muammolariga alohida e'tibor qaratgan.

Colin Drury [2] esa ustama xarajatlarni boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini asoslab bergan va ularni faoliyat asosida taqsimlash (ABC) tizimini rivojlantirgan. Zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan Robert S. Kaplan [3] va Robin Cooper [4] tomonidan ishlab chiqilgan Activity-Based Costing (ABC) tizimi ustama xarajatlarni aniqlik bilan taqsimlashning samarali vositasi sifatida e'tirof etiladi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, ustama xarajatlarni faoliyat turlari asosida taqsimlash mahsulot tannarxini aniqroq shakllantirish va noto'g'ri boshqaruv qarorlarining oldini olish imkonini beradi.

Rus iqtisodchi olimlari, jumladan Vladimir F. Palij [5] va Mikhail V. Melnik [6] ustama xarajatlarni ishlab chiqarish infratuzilmasi bilan bog'liq xarajatlar sifatida izohlab, ularni hisobga olishning metodologik jihatlarni ishlab chiqqan.

Mahalliy olimlar N.B. Abdusalomova [7] va Tashnazarov S.N. [8] tomonidan esa ustama xarajatlarni milliy hisob tizimi sharoitida takomillashtirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari keng o'rganilmoqda. Ularning tadqiqotlarida ustama xarajatlarni to'g'ri tasniflash, hisobga olish va taqsimlash muammolari alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, IAS 2 Inventories doirasida ustama xarajatlarni normal ishlab chiqarish quvvatiga asoslangan holda taqsimlash konsepsiyasi ilmiy jihatdan asoslangan muhim yondashuv sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi, bu esa ustama ishlab chiqarish xarajatlarini har tomonlama, tizimli va chuqur o'rganish imkonini berdi. Xususan, **tizimli yondashuv** asosida ustama xarajatlar ishlab chiqarish tizimining ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv orqali xarajatlarning ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni, ularning o'zaro bog'liqligi hamda yakuniy moliyaviy natijalarga ta'siri aniqlashtirildi. Natijada ustama xarajatlarning korxonada faoliyatidagi funksional roli kompleks tarzda baholandi. **Taqqoslash usuli** yordamida milliy buxgalteriya amaliyoti bilan International Financial Reporting Standards talablari o'zaro solishtirildi. Ushbu tahlil natijasida ustama xarajatlarni hisobga olish va taqsimlashda mavjud metodologik tafovutlar, xususan ularni tasniflash, normal ishlab chiqarish quvvatini aniqlash va ortiqcha xarajatlarni hisobga olishdagi farqlar aniqlandi.

Analitik tahlil usuli ustama xarajatlarning tarkibi, ularning iqtisodiy mazmuni va mahsulot tannarxiga ta'sirini chuqur o'rganishda qo'llanildi. Mazkur usul yordamida xarajatlarning tarkibiy elementlari ajratilib, ularning har biri bo'yicha taqsimlash mexanizmlarining samaradorligi baholandi. **Statistik usullar** orqali ustama xarajatlarning dinamikasi, ularning vaqt bo'yicha o'zgarishi va ishlab chiqarish hajmi bilan o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi. Bu esa ustama xarajatlarning mahsulot tannarxiga ta'sir darajasini miqdoriy jihatdan asoslash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari (factory overheads) korxonaning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan, lekin mahsulot tannarxini aniqlash va moliyaviy nazoratni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan xarajatlar majmui hisoblanadi. Bu xarajatlar elektr energiyasi, texnik xizmat, jihozlarni ta'mirlash, ishchi smeta, ma'muriy bo'lim xarajatlari va boshqa yordamchi xarajatlarni o'z ichiga oladi. Ustama xarajatlar ishlab chiqarish jarayonining samarali ishlashini ta'minlaydi va mahsulot tannarxining to'g'ri shakllanishi uchun nazorat qilinishi zarur.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy xulq-atvoriga ko'ra doimiy va o'zgaruvchan turlarga ajratish zamonaviy boshqaruv hisobi metodologiyasining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tasnif korxonada xarajatlarini boshqarish, rejalashtirish va tahlil qilish jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, ushbu tasnif **xarajatlar ustidan nazoratni tizimli tashkil etish imkonini beradi**. Doimiy xarajatlar, odatda, strategik boshqaruv qarorlari natijasida shakllanadi va qisqa muddatli davrda ishlab chiqarish hajmidagi o'zgarishlarga sezilarli darajada ta'sirlanmaydi. Shu sababli ular nisbatan qat'iy xarajatlar sifatida tavsiflanadi.



Aksincha, o'zgaruvchan xarajatlar ishlab chiqarish hajmi bilan to'g'ridan-to'g'ri funksional bog'liqlikka ega bo'lib, ularning miqdori faoliyat darajasiga mutanosib ravishda o'zgaradi. Bu holat mas'uliyat markazlari kesimida xarajatlarni boshqarish va nazorat qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, mazkur tasnif **moslashuvchan byudjetlashtirish tizimini shakllantirishning metodologik asosi hisoblanadi**. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, agar xarajatlar doimiy va o'zgaruvchan komponentlarga ajratilmasa, turli ishlab chiqarish hajmlariga mos ravishda ishonchli moliyaviy prognozlarni ishlab chiqish murakkablashadi. Moslashuvchan byudjetlar esa korxonada faoliyatining turli ssenariylarini baholash, resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini optimallashtirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchidan, xarajatlarning ushbu tasnifi **marjinal (chegaraviy) tahlilni amalga oshirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim instrument sifatida namoyon bo'ladi**. Xususan, qo'shimcha ishlab chiqarish hajmini oshirish yoki yangi bozor segmentlariga chiqish bilan bog'liq qarorlar qabul qilinayotganda, faqat o'zgaruvchan xarajatlar inobatga olinadi. Chunki doimiy xarajatlar qisqa muddatda o'zgarmas bo'lib qoladi.

Mazkur yondashuvga ko'ra, agar mahsulotning sotish narxi uning o'zgaruvchan xarajatlaridan yuqori bo'lsa, qo'shimcha ishlab chiqarish va sotish korxonada umumiy moliyaviy natijasini yaxshilaydi. Bu esa foydani maksimal darajaga yetkazish yoki zararlarni minimallashtirish imkonini beradi. Shu sababli marjinal tahlil quyidagi strategik qarorlar uchun muhim ahamiyatga ega:

- maxsus buyurtmalarni qabul qilish;
- mahsulotni ishlab chiqarish yoki tashqi manbalardan sotib olish (make or buy) qarori;
- ishlab chiqarishni vaqtincha to'xtatish yoki davom ettirish;
- differensial narx siyosatini shakllantirish.

Ustama xarajatlarni samarali boshqarish ularni hisobga olish va nazorat qilishning ilmiy asoslangan tizimini joriy etishni talab etadi. Mazkur jarayon o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha bosqichlardan iborat bo'lib, har bir bosqich ustama xarajatlarni aniq va asosli taqsimlashga xizmat qiladi.

Birinchi bosqichda xarajatlar iqtisodiy mazmuni, funksional vazifasi va xulq-atvoriga ko'ra tasniflanadi. Ikkinchi bosqichda barcha ustama xarajatlar tegishli hisobvaraqlarda jamlanadi. Uchinchi bosqichda esa xarajatlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'limlari o'rtasida taqsimlanadi. Keyingi bosqichda xizmat ko'rsatish bo'limlari xarajatlari ishlab chiqarish bo'limlariga qayta taqsimlanadi. Yakuniy bosqichda esa ustama xarajatlar mahsulot tannarxiga yuklanadi (absorbsiya qilinadi). Ushbu tizimli yondashuv ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyatini to'liq aks ettirish hamda tannarxni ishonchli shakllantirish imkonini beradi.

Ustama (overhead) ishlab chiqarish xarajatlari odatda ishlab chiqarishga **oldindan belgilangan stavkalar (predetermined rates)** asosida qo'llanadi. Bu stavkalar korxonaning moliyaviy rejalashtirish jarayonida **taxminiy, normal yoki hatto avvalgi davrlar asosida** aniqlanadi, shunda har bir mahsulot yoki ishga mos ulush ajratiladi. Ammo amaliyotda **amalga oshirilgan ustama xarajatlar bilan haqiqiy xarajatlar har doim mos tushavermaydi va** bu holat standart hisobotlar tuzishda variatsiya farq deb ataladi.

Ushbu farq ikki asosiy holatda namoyon bo'ladi:

Ortiqcha taqsimlanish (overabsorption): qo'llanilgan ustama xarajatlar miqdori **haqiqiy sovrilgan yoki sarflangan xarajattan katta** bo'lsa yuzaga keladi. Bu holda, mahsulotga juda ko'p ustama qo'yilgan deb hisoblanadi.

Yetarli taqsimlanmagan (underabsorption): qo'llanilgan ustama xarajatlar miqdori **haqiqiy xarajattan kam** bo'lsa, demak mahsulot yoki ishga yetarlicha ustama taqsimlanmagan deb qaraladi.

Bu holatlar ustama xarajatlar farqi (overhead variance) deb ham yuritiladi va hisobda **debet yoki kredit balanslar** orqali ko'rsatiladi va ortiqcha taqsimlanish kredit balans, yetarli taqsimlanmagan esa debet balans bilan aks ettiriladi.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari odatda umumiy ustama xarajatlarning katta qismini tashkil etadi. Shu sababli, ularni ishlab chiqarish tannarxiga adolatli va to'g'ri tarzda yuklash korxonaning moliyaviy natijalarini aniq aks ettirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarish ustama xarajatlarni hisobga olish jarayoni quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

Ustama xarajatlarni yig'ish – turli bo'limlar tomonidan yuzaga kelgan xarajatlar tegishli “standing order” raqamlari asosida ustama xarajatlar daftarida yig'iladi. Bu bosqich xarajatlarni tizimli ravishda hisobga olish va nazorat qilish imkonini beradi.

Xarajatlarni taqsimlash – yig'ilgan ustama xarajatlar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish bo'limlariga taqsimlanadi. Bu taqsimlash natijasida har bir bo'lim o'z ulushi bilan xarajatlarni qoplaydi.

Apportionment – bevosita taqsimlab bo'lmaydigan xarajatlar adolatli tarzda bo'limlar o'rtasida taqsimlanadi. Bu usul, masalan, ofis texnikasi xizmat ko'rsatish yoki umumiy texnik xizmat xarajatlarni ishlab chiqarish bo'limlariga teng nisbatan yuklashda qo'llaniladi.

Xizmat bo'limi xarajatlarni qayta taqsimlash – texnik xizmat yoki boshqa xizmat bo'limlari xarajatlari



ishlab chiqarish bo'limlariga qayta taqsimlanadi. Shu bilan ular yakuniy mahsulot tannarxiga kiritiladi.

Umumiy ustama xarajatlarni aniqlash – yuqoridagi bosqichlarda yig'ilgan barcha xarajatlar ishlab chiqarish bo'limlarining umumiy ustama xarajati sifatida qabul qilinadi.

Ustama stavkasini hisoblash – har bir bo'lim uchun taxminiy, haqiqiy yoki normal xarajatlar va normal ish rejasi asosida ustama stavkasi aniqlanadi. Bu stavka keyinchalik mahsulot tannarxini hisoblashda qo'llanadi.

Ortiqcha yoki yetarli qoplanmagan ustama – agar ustama xarajatlarning ortiqcha yoki yetarli darajada qoplanmagan miqdori sezilarli bo'lsa, u **qo'shimcha stavka (supplementary rate)** yordamida hisobdan chiqariladi.

Mahsulot tannarxiga yuklash – bo'limlar bo'yicha hisoblangan ustama xarajatlar mahsulot tannarxiga yuqorida aniqlangan stavka asosida yuklanadi.

Nazorat va solishtirish – davriy ravishda haqiqiy xarajatlar bilan hisoblangan ustama xarajatlar solishtiriladi, ortiqcha yoki yetarli qoplanmagan ustama aniqlanadi va zarur bo'lsa tuzatiladi.

Samarqand shahridagi «UzTextile» to'qimachilik korxonasida ustama xarajatlar ishlab chiqarish, texnik xizmat, ma'muriy bo'lim va sotish bo'limi bo'yicha yuzaga keladi. Ushbu bo'limlarning har biri ustama xarajatdagi ulushi orqali korxonada moliyaviy nazoratini yaxshilash va mahsulot tannarxini aniq hisoblash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Ustama xarajatlarning tarkibi va taqsimlanishi tahlili

| Bo'lim | Xarajat turi | Miqdor (so'm) | Ustama xarajatdagi ulush (%) |
|------------------|---------------------------------------|---------------|------------------------------|
| Ishlab chiqarish | Elektr energiya, texnika ta'miri | 12,000,000 | 40% |
| Ishlab chiqarish | Ishchi smeta | 8,000,000 | 26.7% |
| Texnik xizmat | Mashina texnik xizmat xarajati | 5,000,000 | 16.7% |
| Ma'muriy bo'lim | Rahbariyat ish haqi, ofis xarajatlari | 4,000,000 | 13.3% |
| Sotish bo'limi | Reklama, transport | 1,000,000 | 3.3% |

“UzTextile” korxonasida ustama xarajatlarning asosiy qismini ishlab chiqarish bo'limi tashkil qilsa (66.7%), bu mahsulot tannarxini shakllantirishda eng katta ta'sirga ega bo'lib, texnik xizmat bo'limi (16.7%) ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz ishlashini ta'minlaydi; ma'muriy bo'lim (13.3%) rahbariyat ish haqi va ofis xarajatlarini qoplab, strategik boshqaruvni qo'llab-quvvatlaydi; sotish bo'limi esa (3.3%) reklama va mahsulotni bozorga yetkazish xarajatlarini qoplaydi. Shu tahlil yordamida korxonada rahbariyatiga resurslarni samarali taqsimlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ustama xarajatlarni kamaytirish va mahsulot tannarxini optimallashtirish bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Ustama ishlab chiqarish xarajatlari korxonada faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, mahsulot tannarxini aniqlash va moliyaviy nazoratni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish bo'limi ustama xarajatlarning asosiy qismini tashkil etsa, texnik xizmat, ma'muriy va sotish bo'limlari ishlab chiqarish jarayonining uzluksiz ishlashini, boshqaruvni va bozor faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Xalqaro standartlarga muvofiq ustama xarajatlarni adolatli taqsimlash, normal xarajatlar va davriy monitoring asosida hisoblash mahsulot tannarxini aniq belgilash va korxonada samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Takliflar sifatida elektron hisob-kitob tizimini joriy etish, bo'limlararo xarajatlarni aniq indikatorlar asosida taqsimlash, davriy audit orqali ortiqcha yoki yetarli qoplanmagan ustama xarajatlarni aniqlash, moliyaviy hisobotlarni IAS va IFRS standartlariga muvofiq shakllantirish va ustama xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha strategik chora-tadbirlarni ishlab chiqarish tavsiya etiladi. Shu yo'l bilan korxonada resurslardan samarali foydalanish, mahsulot tannarxini kamaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasining 13.04.2016-yildagi “**Buxgalteriya hisobi to'g'risida**”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi O'RQ-404-son Qonuni <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
- 2.International Accounting Standards Board. *IAS 2 – Inventories*. – London.
- 3.International Accounting Standards Board. *Conceptual Framework for Financial Reporting*. – London.
- 4.Charles T. Horngren, Srikant M. Datar, Madhav V. Rajan. *Cost Accounting: A Managerial Emphasis*. – Pearson.
- 5.Colin Drury. *Management and Cost Accounting*. – Cengage Learning.
- 6.Robert S. Kaplan, Robin Cooper. *Cost & Effect: Using Integrated Cost Systems*. – Harvard Business School Press.
- 7.Ray H. Garrison, Eric Noreen, Peter Brewer. *Managerial Accounting*. – McGraw-Hill.
- 8.Вахрушина М.А. *Управленческий учет*. – Москва.
- 9.Шеремет А.Д. *Теория экономического анализа*. – Москва.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
